

SPIRITUAL GROWTH OF THE PERSON ON THE BASIS OF GENDER EDUCATION

Hatamova Ma'rifat Yorkin Kizi.

1st Stage Master.

Jizak State Pedagogical Institute .Pedagogical Theory And History

Annotation: This article is about the role of gender education in the development and growth of the individual, the role of society, family and institutions, decisions and programs in the development of the individual.

Keywords: Gender education framework, Gender equality strategy, individual role-playing games.

GENDER TARBIYASI ASOSIDA SHAXSNING MA'NAVIY YUKSALISHI

Hatamova Ma'rifat Yorqin Qizi.

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti .Pedagogika Nazariyasi Va Tarixi Mutaxassisligi 1-Bosqich Magistri

Annotatsiya: Mazkur maqola shaxsning kamol topishi va yuksalishida gender tarbiyasining ahamiyati, shaxsni tarbiyalashda jamiyat oila va muassalar, qabul qilinayotgan qarorlar va ishlab chiqilgan dasturlarning ahamiyati va o'rni haqida.

Kalit so'zlar: Gender tarbiya asosi, Gender tenglik strategiyasi, individ rolli o'yinlar.

Gender tenglikni ta'minlash masalasi dunyo miqyosida muhim ahamiyat kasb etgan davrda bugungi O'zbekistonda ham muhim masala sifatida qaralayotgani mamlakatimizda inson huquqlari sohasida ilg'or qadamlardan biridir. Prezidentimiz tomonidan Gender tenglik masalasi ustuvor masala ekanligi, har bir sohada ayollarning ham roli beqiyos ekanligi, muammolarni bartaraf etish barchamizning burchimiz ekanligi ko'p bor ta'kidlanmoqda. Gender tarbiya asosida rivojlanayotgan O'zbekistonga axloqiy, bilimli, o'zining barcha huquqlarini biladigan va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, o'zining va jamiyatning farovonligiga xizmat qila oladigan, shaxslarni shakllantirish barcha jamiyat a'zolarining eng asosiy vazifasiga aylanishi zarur.

Ma'lumki inson dastlab bu dunyoga kelganida biz unga kichik bir mavjudot-individ sifatida qaraladi. Ma'lum vaqt o'tar ekan bu individ bolaga, o'smir, o'spirin va shaxs sifatida shakllanish bosqichlaridan o'tadi. Ushbu bosqichlar insonning jamiyatda, ijtimoiylashuvi ya'ni jamiyat bilan bo'ladigan bevosita va bilvosita aloqalari orqali shaxs sifatida shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Odam shaxs sifatida shakllanishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his eta olishi, o'zining xususiyatlari, dunyoqarashi va sifatleri bilan boshqalardan farq qila olishi kerak. Kadrlar tayyorlash milliy modelida davlat siyosati insonni har tomonlama yetuk, teng huquqli, ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalash va uni har bir sohada rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishini davlat va siyosatimizni asosiy maqsadi ekanligini nazarda tutadi. Bugun yurtboshimiz olib borayotgan erkin siyosiy jamiyatda har bir fuqaro, har bir shaxsga berilayotgan imkoniyatlar va ulardan foydalana olishda ayniqsa erkaklar va ayollar o'rtasidagi gender tenglik masalalari va ulardagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan dasturlarning ishlab chiqilgani har bir shaxsning u hoh erkak kishi bo'lsin, hoh ayol kishi bo'lsin berilgan imtiyozlardan teng foydalana olish huquqini beradi.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan „Gender tenglik strategiyasi“ bugungi davrda jamiyatimizga kirib kelgan ommaviy madaniyat ta'siri, yoxud ayrim bu rivojlanayotgan davlatlarni orasiga fitna solmoqchi bo'lgan insonlarning davlatimizga olib kirmoqchi bo'layotgan turli zo'ravonlik g'oyalarini targ'ib etishlarida judayam zaruriy bo'lgan cheklavlarni qo'ya olyabdi.

Gender tarbiya asosida yaratilgan milliy dasturlar bizning dinimiz,jamiatimiz ,qadryatlarimiz asrlar oldin bizga meros bo'lib qolgan adabiy qoidalarimiz asosida o'quvchilarga o'rgatilmoqda.Shuni takidlash joizki Gender tarbiyaning asosini ham aslida axloqiy munosabatlar tashkil etadi,uning umumiy maqsadlari ikkala jins vakillari uchun ham bir xil,ularda faqat shaxsiy fazilatlar farqlanadi.Gender tarbiyasida eng asosiy maqsad erkak va ayolning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish,ularni kelajakda boshqa jinsga nisbatan munosabatini ijobiy shakllantirish,o'gil bola va qiz bola o'rtasidagi munosabatlar madaniyatini shakllantirish va tarbiyalash.Jamiatda bo'layotgan voqealarga munosabatini tenglikda shakllantira olish,jamiatdagi huquqiy munosabatlarda ikta jins vakillarini ham faol munosabatda bo'lishiga,jarayonlarda ishtirok eta olishiga o'rgatish dan iborat.

Eng avvalo ushbu tarbiya oiladan boshlanishi lozim.Har bir oilada ijtimoiy tuzilishi va kelib chiqishidan qat'iy nazar o'g'il va qiz farzandlar dunyoga keladi.Bola tug'ilgan oilasidan juda ko'p bilimlarni tajribani oladi.Ota onalarning bir biriga bo'lgan munosabati,oiladagi kattalarning oiladagi rollarini keraklicha ijro etishlari tarbiya olayotgan bola uchun asosiy poydevor bo'ladi.Qaysi oilada ota ona o'zini axloqiy ma'naviy yetuk hisoblasa,o'ziga va boshqa jins vakillariga nisbatan hurmat hissi shakllansa,ota ham o'z rolida,ona ham o'z rolida oiladagi rolini ijro eta olsa ,qadryatlar va o'zaro hurmat asosida o'zining hayotiy faoliyatini tashkil eta olsa ana o'sha oilada voyaga yetgan bola o'zini ham o'zgalarni ham hurmat qila oladi. Gender tarbiya oilada bola tug'ilgan kunidan boshlanadi va bolaning hayotiy faoliyati davomida doimiy rivojlanib boradi.Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida ham bolalarni tarbiyalashda turli dasturlar ishlab ,o'quv qo'llanmalar chiqilgan.Maktabgacha ta'lim muassasalarida rolli o'yinlar,turli xil tadbirlar ,ertaklar,xalq og'zaki ijod namunalari milliy qadryatlarga asoslangan teatrlashtirilgan sahnalar bolalarning tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.Maktab muassasalarida olib borilayotgan dasturlar ham huddi shunday.Jumladan oiladagi zo'ravonliklar ularni bartaraf etish muammolarni bartaraf eta olish ,yuqori sinf o'quvchilarida qizlarni ham o'g'il bolalarni ha oilaviy hayotga o'smirlik davrdan boshlab tayyorlash,suhbatlar,turli psixologik targ'ibot ishlarining olib borilayotganligi qizlarning ham,o'g'il bolalarning ham o'zaro huquqiy tenglik asosida ta'lim tarbiya olishlarida asos bo'la oladi.

Xulosa o'rnida shu aytish joizki,Gender tarbiyasi oiladan boshlanar ekan eng avvalo oiladagi ota onalarni ushbu jarayonga tayyorlash asosiy maqsad bo'lmog'i lozim.,„Gender tenglik strategiyasi"dastur asosini „Uzluksiz tarbiya konsepsiyasi" bilan bog'lash ma'naviy jihatdan ham , huquqiy jihatdan ham barkamol tarbiya topa olishiga ishonchim komil

Foydalanilgan Adabiyotlar.

- 1.Sh.Mirziyoyev.BMT.75 sessiyasida so'zlangan nutq.
- 2.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.
- 3.M.Karimova Tarbiya va shaxsning shakllanishi.2016.